

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-5/1

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

МУНДАРИЖА
ЭЪТИРОФ

Abdullayev B.I., Abdullayev B.I. Muhtaram ustoz, mohir pedagog, taniqli olim, professor Sotipov G'Oyibnazar Matvafojevich faoliyatiga chizgilar	6
БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
Abdurashidova N.Sh. Manzarali daraxtlar va changlarining organizimga ta'siri	9
Bekchanova M.K., Abdullaev I.I. Shimoli-g'arbiy O'zbekiston yomg'ir chuvalchanglar (Lumbricidae) oilasining morfologik xususiyatlari	11
Botirov E.A. Agrotis avlodi tunlam kapalaklarining (Lepidoptera: Noctuidae) ozuqa spektriga oid	16
G'aniyev K., Valixonova M.I. Oltiariq tumanida tok agrotsenozlarida uchrovchi zararkunandalar faoliyati	20
G'ofurova O'.Sh., Mamatqulova A.S., Sangilova N.F., Turdiyeva S.X. Mirzacho'l sharoitida geranium sanguineum L o'simligini mineral o'g'itlarga bo'lgan talabini o'rganish	24
G'ulomova G., Mo'ydinov M., G'ulomov G'. Amarantning ozuqaviy xususiyatlari	30
G'aniyev K., Oxunjonova N. Farg'ona shahrida olma qizil qon shirasi (Eriosoma lanigerium)	35
Islomov B.S., Jalilov A.A. Laboratoriya sharoitida Yelimli karrak (cousina resinosa) o'simligi yashil massasi tarkibidagi namlik miqdorini aniqlash	38
Maxkamov T.X., Ozimbayeva K.B., Sotiboldiyeva D.I., Rahmatov A.A. Ayrim adventiv turlarining invazivlik maqomini aniqlash	41
Muradova O.I., Qaysarov V.T. Dorivor gulxayrining (Althaea officinalis L.) urug'unuvchanligi va morfologik ko'rsatkichlari	47
Nabiyeva F.S., Dushanova G.A., Egamberdiyeva S.M. Saccharomyces cerevisiae zamburug'ini ko'paytirishning optimal sharoitlarini yaratish	50
Norqulov M.M., Haydarov X.Q., Hamroyeva M.M., Hudoyberganov N.A. Atmosfera tarkibidagi radionuklidlarni biomonitoring qilishda lishayniklardan foydalanish	54
Qarshiboyeva N.H. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan karamdoshlar (brassicaceae) oilasiga mansub turlarni o'rganish	60
Rayimov A.R., Rustamova M.A., Orifov S.B. Buxoro viloyati suvli hududlardan ovlanadigan baliq turlari	63
Rayimov A.R., To'raev M.M., Amonov A.O'., Rustamova M.A. Buxoro viloyati va unga chegaradosh hududlarda uchrovchi yirtqich qushlarning tur tarkibi	67
Rayimov A.R., To'raev M.M., Pardayev Sh.S., Rustamova M.A., Ismoilova U.I. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi va unga tutash hududlar suvliklarining ixtiofaunasi	72
Rozimov A.D. Morphometric features of the chinese hook snout opsariichthys bidens gunther 1873 (teleostei: xenocyprididae) from the Chirchik river	75
Usmonova M.S. Yurak faoliyatini boshqarish mexanizmlari	79
Xusanov A.K., Ismoilov M., Sodiqjonova Sh., Begijonova M., Kozimov A., Yaxyoyev A., Tillaeva S. Andijonning Sharqiy qismida tarqalgan qattiqqanotlilar (Insecta: Coleoptera) toksonomik tarkibi, ekologik xususiyatlari	81
Азатова Г.У. Хоразм воҳасида ковуннинг кенг тарқалган замбуруғ касалликлари	87
Азимов Д.А., Акрамова Ф.Д., Мирзаева А.У., Шакарбаев У.А., Саидова Ш.О., Арепбаев И.М., Ёркулов Ж.М. Трофико-экологические особенности заражения гельминтами различных групп водно-болотных птиц Каракалпакстана	90
Ваисова Г.Б. Carparis spinosa L. доминантлик қилган жамоаларнинг флористик таркиби ва унинг таҳлили	97
Давлетмуратова Б.Т., Матжанова Х.К. Феруловники и биотопическая приуроченность Ferula assa-foetida в Южном Приаралье	100
Жалов Х.Х., Абдирасулов Ф.А., Худайберганов Н.А., Хуррамова М.Х. Шимолий Туркистон бриофитларининг субстратларга кўра таҳлили	102

**BUXORO IXTISOSLASHTIRILGAN “JAYRON” PITOMNIGI VA UNGA TUTASH
HUDUDLAR SUVLIKLARINING IXTIOFAUNASI**

A.R. Rayimov, PhD, dos., Buxoro davlat universiteti, Buxoro
M.M. To'raev, b.f.n, dos., Buxoro davlat universiteti, Buxoro
Sh.S.Pardayev, b.f.n, dos., Buxoro davlat universiteti, Buxoro
M.A. Rustamova, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
U.I.Ismoilova, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Аннотация. В данной статье приводятся данные наблюдений, проведенных в период с 2001 по 2022 год на водоемах, расположенных в южной части Бухарского специализированного питомника “Джейран” - “Гузаль куль”, “Урдакли куль”, “Туз куль” и прилегающем АМУ-Бухарском канале, а также на небольших сезонных озерах и лужах во круг канала. Установлено, что в водных районах встречаются 5 родов, 7 семейств, 28 видов рыб, относящихся к 2 большим родам. Видовой состав зообентоса в зависимости от массы и плотности водорослей в водоемах также является определяющим фактором, определяющим видовой состав, численность, биотопическое распределение, воспроизводство, сезонную и годовую динамику рыб на территории.

Ключевые слова: Серебряный карась, Змееголов, Большой амударьинский лжеслопатонос, Миссисипская гамбузия, Амурский бычок.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigining Janubiy qismida joylashgan suvliklarda - “Go‘zal ko‘l”, “O‘rdakli ko‘l”, “Tuzli ko‘l” va unga tutash Amu-Buxoro kanali hamda kanal yoqasidagi kichik mavsumiy ko‘llar va ko‘lmaklarda 2001-2022-yillar oralig‘ida olib borilgan kuzatishlar davomida olingan ma‘lumotlar bayon etilmoqda. Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigining suvlik hududlarida baliqlarning 2 ta katta turkumga kiruvchi 5 ta turkum, 7 oila, 28 tur uchrashi aniqlandi. Suv havzalardagi suv o‘tlarning massasi va zichligi zoobentoslarining tur tarkibini belgilovchi omil sanaladi, bu esa hududdagi baliqlarning tur tarkibi, soni, biotopik taqsimlanishi, ko‘payishi, mavsumiy va yillik dinamikasini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: Kumush tovonbaliq, Ilonbosh, Amudaryo katta kurakburuni, Oddiy gambuziya, Amur buqabalig`i-Rhinogobius bruneus

Abstract. In this article data collected during observations in the reservoirs that are located in the southern part of Bukhara specialized preserve “Jeyran” such as “Guzal Kul”, “Urdak Kul”, “Salty Lake” and the adjacent Amu-Bukhara canal, as well as seasonal lakes and ponds on the canal bank between the years of 2001 and 2022 is discussed. It is found out that there are 5 orders, 7 families, 28 species of fish belonging to 2 large orders in the watery areas of Bukhara specialized preserve “Jeyran”. The amount and density of algae in reservoirs are the principal factors of the species composition of zoobenthos, determining the species composition, abundance, biotopic distribution, reproduction, seasonal and annual dynamics of fish in the territory as well.

Key words. *Carassius gibelio*, *Channa argus*, *Pseudoscaphirychus kaufmanni*, *Gambusia affinis*, *Luciobarbus conocephalus*.

Kirish. Bu ko‘llar Amu-Buxoro kanali va yer osti suvlari hisobidan hosil bo‘lgan. Ko‘lning maydoni 400 ga, koordinatalari 39° 37' N , 64°39' Ye. Tabiiy holda ko‘lning atrofida o‘sadigan yuksak suv o‘simliklari qamish - *Phragmites australis*, qo‘g‘a – *Typha angustifolia*, rdest - *Potamogeton pectinatus*, shoxbarg - *Ceratophyllum demersum*, urut – *Myriophyllum spicatum*, tuban vakillaridan xara - *Chara fragilis* va boshqalar o‘txo‘r baliqlarning tabiiy ozuqa bazasi hisoblanadi. Ushbu suv o‘tlarlar suv havzalarning holati va sho‘rlanish darajasiga qarab turli holatda tarqalgan va ko‘llarning qirg‘og‘idan 3-5 metrdan, 10-30 metrgacha ichki qismiga kirib borgan.

Material va metodlar. Amu-Buxoro kanalidan baliq namunalari dala sharoitida katakchasi har xil o‘lchamdagi (35,45,55,65 mm) qurama to‘rlar bilan olib borildi. Kichik baliqlarni tutishda katakchasi 15-30 mm bo‘lgan sachok, katakchasi 8-10 mm bo‘lgan brenden to‘ri, qurama to‘rdan va qarmoqlardan foydalanildi. Tutilgan baliqlar 4% li formalin bilan fiksatsiya qilindi[1;2;3].

Shuningdek turli yillarda tutilgan baliqlar kolleksiyalari, xususan BuxDU zoomuzeyida saqlanayotganlardan ham foydalanildi. Yirtqich baliqlarni tutishda qarmoqlardan foydalanildi. Baliqlarning og'irligi elektron tarozida o'Ichandi. Baliqlarning tur tarkibini aniqlashda Mirabdullaev va boshqa mualliflar tomonidan yozilgan adabiyotlardan, baliqlarning ilmiy nomlari va sistematik talqini Dadaev va boshqalar tomonidan chop etilgan adabiyotlardan foydalanib bajarildi [3;4;8].

Natija va muhokama. Biz kuzatgan dala materiallarining tahlili asosida Buxoro ixtisoslashtirilgan Jayron pitomnigi va unga tutash suvlik hududlarda baliqlarning 2 ta katta turkumiga kiruvchi (Ganoidlar – *Ganoidomorpha*, Suyakdor baliqlar – *Teleostei*) 5 ta turkum (Osyotrsimonlar – *Acipenseriformes*, Karpsimonlar – *Cypriniformes*, Laqqasimonlar – *Siluriformes*, Olabug'asimonlar – *Perciformes*, Kefalsimonlar – *Mugiliformes*), 7 oila (Osyotrlar – *Acipenseridae*, Karplar – *Cyprinidae*, Eshvoylar- *Cobitidae*, Laqqalar – *Siluridae*, Olabug'alar – *Percidae*, Kefallar – *Mugilidae*, Buqabaliqlar – *Gobiidae*, Ilonboshlar – *Channidae*, Gambuziyalar-Poeciliidae) 28 tur uchrashi aniqlandi (1 -jadval).

1 - jadval

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi va unga tutash suvlik hududlarda baliqlar faunasi

No	Baliq turlari	Muhofaza maqomi	Amu-Buxoro kanali va kanalbo'yi kichik ko'llarda	Go'zal ko'l	O'rdakli ko'l	*Tuzli ko'l va Mavsumiy ko'llarda
Tip. Xordalilar - Chordata						
Kenja tip. Boshskeletlilar -Craniata						
Guruh. Murtak pardasiz umurtqalilar-Anamnia						
Katta sinf. Baliqlar-Pisces						
Sinf. Suyakli baliqlar- <i>Osteichthyes</i>						
Kenja sinf. Shu'laqanotlilar – <i>Actinopterygii</i>						
Katta turkum. Ganoidlar – <i>Ganoidomorpha</i>						
Turkum. Osyotrsimonlar- <i>Acipenseriformes</i>						
Oila. Osyotrlar - <i>Acipenseridae</i>						
1	Amudaryo katta kurakburuni- <i>Pseudoscaphirychus kaufmanni</i>	UzRDB RL CITES I	+	-	-	-
Katta turkum. Suyakdor baliqlar- <i>Teleostei</i>						
Turkum. Karpsimonlar – <i>Cypriniformes</i>						
Oila. Karplar – <i>Cyprinidae</i>						
2	Orol qizilko'zi- <i>Rutilus rutilus aralensis</i>		+	-	-	-
3	Qizil labli oq qayroq – <i>Aspius aspius taeniatus</i>		+	+	+	-
4	Orol mo'ylovli balig'i – <i>Barbus brachycephalus</i>	UzRDB	+	+	+	-
5	Parrak (nashtarqanot) – <i>Capoetobrama kuschakewitschi</i>	UzRDB	+	+	+	-
6	Qilich baliq – <i>Pelecus cultratus</i>		+	+	+	-
7	Oqqayroq – <i>Aspius aspius</i>		+	+	+	-
8	Cho'rtansifat oqqayroq – <i>Aspiolucius esocinus</i>	UzRDB RL	+	-	-	-
9	Orol moybalig'i – <i>Chalcalburnus chalcoides aralensis</i>		+	+	+	-
10	Samarqand xramulyasi – <i>Varicorhinus heratensis steindachneri</i>		+	+	+	-
11	Turkiston mo'ylovdori - <i>Luciobarbus conocephalus</i>	UzRDB	+	+	+	-
12	Oqcha - <i>Abramis brama</i>		+	+	+	-
13	Sharq oqchasi – <i>Abramis brama orientalis</i>		+	-	-	-
14	Kumush tovonbaliq – <i>Carassius gibelio</i>		+	-	-	-
15	Zog'ora – <i>Cyprinus carpio</i>		+	+	+	*+
16	Oq amur – <i>Ctenopharyngodon idella</i>		+	+	+	-
17	Qora amur – <i>Mylopharyngodon piceus</i>	UzRDB	+	-	-	-
18	Oq amur oqchasi- <i>Parabramis pekinensis</i>		+	+	+	-
19	Ko'zli taxir baliq- <i>Rhodeus ocellatus</i>		+	+	+	-
20	Xitoy soxta qumbalig'i- <i>Abbotina rivularis</i>		+	+	+	*+
Oila. Eshvoylar- <i>Cobitidae</i>						
21	Amudaryo yalang balig'i- <i>Nemacheilus oxianus</i>		+	+	-	*+
22	Tibet yalang balig'i- <i>Nemacheilus stoliczkai</i>		+	-	-	-

23	Orol tikanagi - <i>Sabanejewia aurata</i>	UzRDB	+	-	-	-
Turkum. Laqqasimonlar – <i>Siluriformes</i>						
Oila. Laqqalar- <i>Siluridae</i>						
24	Laqqa- <i>Silurus glanus</i>		+	+	+	*+
Turkum. Olabug'asimonlar- <i>Perciformes</i>						
Oila. Olabug'alar- <i>Percidae</i>						
25	Oq sla - <i>Stizostedion lucioperca</i>		+	+	+	-
Oila. Buqabaliqlar- <i>Gobiidae</i>						
26	Amur buqabaliq'i- <i>Rhinogobius bruneus</i>		+	+	+	*+
Oila. Ilonbosh – <i>Channidae</i>						
27	Ilonbosh- <i>Channa argus</i>		+	+	+	*+
Turkum. Kefalsimonlar- <i>Mugiliformes</i>						
Oila. Gambuziyalar-Poeciliidae						
28	Oddiy gambuziya – <i>Gambusia affinis</i>		+	+	+	*+

UzRDB - O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan turlar (kenja turlar) (2019)

RL -Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) ning Qizil ro'yxatiga kiritilgan turlar (kenja turlar) (2004)

CITES I, CITES II - Yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi konvensiyasining ilovalariga kiritilgan turlar [9].

*+ - Hududdagi Tuzliko'l va Amu-Buxoro kanali yoqasidagi mavsumiy ko'llarda nomuntazam uchrovchi turlar.

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi va unga tutash suvlik hududlarda qayt qilingan 28 baliq turining 7 turi - (Amudaryo katta kurakburuni- *Pseudoscaphirychus kaufmanni*, Orol mo'ylovdori – *Luciobarbus brachycephalus*, Turkiston mo'ylovdori – *Luciobarbus conocephalus*, Cho'rtansifat oqqayroq – *Aspiolucius esocinus*, Parrak (nashtarqanot) – *Capoetobrama kuschakewitschi*, Qorako'z – *Abramis sapa*, Orol tikanagi -*Sabanejewia aurata* O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga, shulardan 2 tur (Amudaryo katta kurakburuni- *Pseudoscaphirychus kaufmanni*, Cho'rtansifat oqqayroq – *Aspiolucius esocinus*) IUCN Qizil ro'yxatiga, 1 tur (Amudaryo katta kurakburuni- *Pseudoscaphirychus kaufmanni*) CITES ning I va II ilovasiga kiritilgan [7;6].

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi va unga tutash suvlik hududlarida uchrovchi baliqlar turkumlaridan KarpSimonlar - *Cypriniformes* yetakchi turkum hisoblanib unga 22 tur kiradi. Qolgan turkum vakillarining ulushi kamroq bo'lib uni 2-jadvalda ko'rish mumkin.

Olingan natijalarga ko'ra "Jayron" pitomnigi va unga tutash suvlik hududlarda aniqlangan 28 tur baliqlardan tur tarkibi bo'yicha eng ko'pi KarpSimonlar - *Cypriniformes* turkumiga 22 tur (78,57 %), Osiyotrsimonlar – *Acipenseriformes* turkumiga 1 tur (3,57 %), Olabug'asimonlar- *Perciformes* turkumiga 3 tur (10,71 %) , Laqqasimonlar –*Siluriformes* turkumiga 1 tur (3,57%), Kefalsimonlar-*Mugiliformes* turkumiga 1 tur (3,57 %) kiradi (**2- jadval**).

2 - jadval

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi va unga tutash suvlik hududlarda uchrovchi baliqlarining turkum va oilalar spektri

Turkumlar	Oilalar soni	%	Tur soni	%
Osiyotrsimonlar – <i>Acipenseriformes</i>	1	14,28	1	3,57
KarpSimonlar - <i>Cypriniformes</i>	2	28,57	22	78,57
Laqqasimonlar – <i>Siluriformes</i>	1	14,28	1	3,57
Olabug'asimonlar- <i>Perciformes</i>	1	28,57	3	10,71
Kefalsimonlar- <i>Mugiliformes</i>	1	14,28	1	3,57
Jami	7	100	28	100

Keng tarqalgan turlar toifasiga Laqqa –*Silurus glanus*, Zog'ora – *Cyprinus carpio*, Orol qizilko'zi- *Rutilus rutilus aralensis*, Oq amur – *Ctenopharyngodon idella* kabilarni kiritish mumkin. Yo'q bo'lish ketish arafasida turgan endemik turlar toifasiga Amudaryo katta kurakburuni- *Pseudoscaphirychus kaufmanni*, Orol mo'ylovdori – *Luciobarbus brachycephalus*, Cho'rtansifat oqqayroq – *Aspiolucius esocinus*, Orol tikanagi -*Sabanejewia aurata* kiradi. Zaif qisqarib borayotgan turlar toifasiga Parrak (nashtarqanot) – *Capoetobrama kuschakewitschi*, Qorako'z - *Abramis sapa*, Turkiston mo'ylovdori – *Luciobarbus conocephalus* kabilar mansubdir.

Kuzatishlarimiz davomida mazkur suv havzalarda uchrovchi baliqlardan 7 turi O'zbekiston hamda Xalqaro "Qizil Kitob"larga kiritilgan bo'lib, ular asosan Amu-Buxoro kanalida va ba'zan, kanaldan to'g'ridan-to'g'ri suv bilan ta'minlanadigan Go'zal ko'l va O'rdakli ko'llarda uchraydi.

Hududdagi Tuzliko'l, shuningdek, Amu-Buxoro kanali yoqasidagi kichik mavsumiy ko'llar va ko'lmaklarda kanal va ko'llardan oqib chiqqan suv orqali qisqa muddatli mahaliy ixtofauna shakillanib turadi. Ushbu suvliklardagi tur tarkib, suv toshgan suv manbaasiga qarab shakillanadi.

Xulosa. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi va unga tutash suvlik hududlarda baliqlar populyatsiyasining soni to'g'risidagi yangi ma'lumotlar region suv havzalarining kadastr informatsion bazasini tuzishda, baliqlarning xilma-xilligi, klassifikatsiyalanishi, son dinamikasi, baliqlar dunyosini muhofaza qilish, ulardan barqaror foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etishda zarur bo'lgan axborotlardan tashkil topadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki kuzatishlar olib borilgan hudud suv havzalari ixtiofaunasining tur tarkibi va uning soni tez-tez o'zgaruvchanligi aniqlandi. Ushbu holat suv havzalarga suv oqib kirishining mavsumiy o'zgaruvchanligi oqibatida ko'llarda suv sathining pasayishi, shuningdek, ko'llar maydonining kichikligi, ayrim holatlarda qurg'oqchilik va yog'ingarchilik miqdorining kam bo'lishi oqibatida ko'llarning qurib qolishi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев М.А., Д.У.Урчинов. Промысловые рыбы водоемов низовьев р. Зарафшан.Т.:Фан,1989. 3-70 с.
2. Котляр О.А. Методы рыбохозяйственных исследований (ихтиология). Рыбное, Д.Ф Астрахан: АГТУ, 2004.3-180 с.
3. Dadaev S., Saparov K. Umurtqalilar zoologiyasi. Toshkent, 2019. B.90-218 b.
4. Husenov S.Q., Niyozov D.S. Baliqchilik. Toshkent, 2013.B .297-300
5. Rayimov A.R, To'raev M.M, Toshev H.M, To'rayeva N.M. Buxoro viloyati va unga tutash suvlik hududlarda baliqlarning tur tarkibi va soni//Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: Ilmiy jurnal.-№8/1 2022 y.B.44-48
6. To'raev M.M, Rayimov A.R, Rustamova M.A Buxoro Viloyat Suvliklarida uchrovchi O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan Baliqlar bioekologik xususiyatlari. Farg'ona vodiysida biologik xilma-xillikni saqlab qolishning hozirgi zamon muammolari va yechimlari. Andijon, 2022, B. 163-166.
7. Rayimov A.R, Rahmonov R.R, Rustamova M.A O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi"ga kiritilgan noyob baliqlarning bioekologik xususiyatlari. O'zbekiston sharoitida baliqchilikni rivojlantirishi muammolari va istiqbollari. Buxoro-2021 B.44-46.
8. Mirabdullaev I.M., Mirzaev U.T., Kuzmetov A.R., Kimsanov Z.O. O'zbekiston va qo'shni hududlar baliqlari aniqlagichi. Toshkent: Sano-standart.2011.3-107 b
9. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2- jild. Toshkent, 2019. – 106 - 129 b

UDC: 597.42/.55+591.9

MORPHOMETRIC FEATURES OF THE CHINESE HOOK SNOOT *OPSARIICHTHYS BIDENS* GÜNTHER 1873 (TELEOSTEI: XENOCYPRIDIDAE) FROM THE CHIRCHIK RIVER

A.D. Rozimov, master student, National University of Uzbekistan, Tashkent

Annotatsiya. Uzoq Sharq suv havzalaridan tasodifan iqlimlashtirilgan Xitoy ilgak tumshuqli balig'i *Opsariichthys bidens* yaqin yillargacha uchlab baliq *O. uncistrostris* sifatida qarab kelindi. Ushbu maqolada keng tarqalgan yirtqich va invaziv *O. bidens* turining morfometrik ko'rsatkichlari va tabiiy yashash muhiti bo'lmagan Chirchiq daryosining tekislik qismidan yangi maksimal tana massasi qayd etilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: morfometrika, *O. bidens*, Chirchiq daryosi, yangi maksimum massa, invaziya.

Аннотация. Случайно акклиматизировавшаяся из дальневосточных вод *Opsariichthys bidens* до недавнего времени считалась тройной рыбой *O. uncistrostris*. В данной статье сообщается о морфометрических параметрах широко распространенного хищного и инвазионного вида *O. bidens* и о регистрации нового максимума массы тела из неареальной долины реки Чирчик.

Ключевые слова: морфометрия, *O. bidens*, р. Чирчик, новый максимум массы, инвазия.

Abstract. The Chinese hook snout *Opsariichthys bidens*, accidentally acclimatized from the Far Eastern waters, was until recently regarded as the three lips *O. uncistrostris*. This paper reports on the morphometric parameters of the widespread predatory and invasive species *O. bidens* and the record of a new maximum body mass from the non-habitat Chirchik River plain.

Key words: morphometries, *O. bidens*, Chirchik River, the new maximum mass, invasion.